



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

2025-YILLIK HISOBOT

Davlat organlari va tashkilotlarining
Ichki audit xizmatlari faoliyati
yuzasidan

Toshkent – 2026-yil
www.imv.uz



MUNDARIJA

Kirish	3
I. Ichki audit xizmatlari faoliyatini uslubiy ta'minlash	5
II. Sertifikatlashni tashkil etish va ichki audit xizmati xodimlari malakasini oshirish	7
III. Ichki audit xizmatlari faoliyatining tashkil etilishi hamda ularning faoliyatini jamoatchilikka ochiqlash	9
IV. Ichki audit xizmatlari faoliyati natijalari	11
V. Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning reytingi	13
VI. Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalari	14
VII. Ichki nazorat tizimini tashkil etishni yo'lga qo'yish va takomillashtirish	16
VIII. Ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha xalqaro hamkorlik	17
Baholash natijalari (<i>Illova</i>)	18

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish, davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash, budget mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanishni kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo'nalishda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari hamda sohaviy dasturlar doirasida davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlarini (keyingi o'rinlarda – ichki audit xizmatlari) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu islohotlar doirasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparatida Davlat organlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda - Boshqarma) faoliyat olib boradi hamda u ichki audit xizmatlari faoliyatini uslubiy ta'minlash, ichki auditorlarga malaka sertifikatini berish va ularning malakasini oshirishni tashkil etish hamda ichki audit xizmatlarining faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini amalga oshirib kelmoqda.

Boshqarma tomonidan shu kunga qadar ichki audit xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi (<https://www.imv.uz>), ichki audit xizmatlari xodimlarining malakasini sertifikatlash, malakasini oshirish tizimini takomillashtirish ishlari amalga oshirildi, ularning faoliyati baholandi.

Ichki audit xizmatlari davlat organlari va tashkilotlarida moliyaviy-xo'jalik faoliyatining qonuniyligi, samaradorligi va maqsadga muvofiqligini baholash, ichki nazorat tizimining ishonchliligini ta'minlash, boshqaruv qarorlarining asosliligini oshirish hamda budget va budgetdan tashqari mablag'lardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim institut hisoblanadi.

Shu ma'noda, ichki audit faoliyati nafaqat qoidabuzarliklarni aniqlashga, balki ularning oldini olish, tizimli kamchiliklarni bartaraf etish va barqaror boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

2025-yil davomida ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qator tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, ichki audit xizmatlari shtat birliklari eng kam sonini belgilashning mezonlari va eng kam me'yorlari belgilandi, ichki audit xizmati xodimlarining faoliyatsamaradorlik reytingi joriy etildi.

Shuningdek, ichki audit xizmatlarining funksional mustaqilligini oshirish, xavflarni aniqlash va ularni oldini olishga asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, audit tadbirlarini rejalashtirish hamda ularni amalga oshirish jarayonida tahliliy va profilaktika mexanizmlarni kuchaytirish, audit tadbirlari natijalari ijrosi ustidan monitoring tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rildi.

Shu bilan birga, ichki audit xizmatlari faoliyatida masofaviy nazorat mexanizmlari kuchaytirilib, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'lami kengaytirildi, elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlari oshirildi, avtomatlashtirilgan tahlil va monitoring vositalarini joriy etish masalalariga ham ustuvor ahamiyat qaratildi.

Mazkur hisobotda 2025-yil davomida Boshqarma tomonidan ichki audit xizmatlari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda ichki audit xizmatlari faoliyati natijalari keltirilgan.

I. Ichki audit xizmatlari faoliyatini uslubiy ta'minlash

2025-yil davomida ichki audit xizmatlari faoliyatini **uslubiy ta'minlash** yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

a) Vazirlar Mahkamasining “Davlat moliyasi sohasida xavflarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi va 2025-yil 29-apreldagi 279-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Unda **respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida moliyaviy va boshqa xavflarni barvaqt aniqlash, baholash va boshqarishning yaxlit tizimi joriy etildi.**

Shuningdek, ushbu qaror bilan Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tartibi to'g'risidagi nizom hamda Xavflarni boshqarish qo'mitasi to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi.

Mazkur qaror asosida **42 ta** davlat organlari va tashkilotlarida birinchi rahbar boshchiligida **xavflarni boshqarish qo'mitalari tuzilib, faoliyati yo'lga qo'yildi.**

b) Vazirlar Mahkamasining “2025–2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi va 2025-yil 16-iyuldagi 446-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Uning tarkibidan 2025–2027-yillarda davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazorat tizimini takomillashtirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish “Yo'l xaritasi” o'rin oldi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan amaldagi ichki audit xizmatlari faoliyatiga oid **Hukumat qarorlariga quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi:**

ichki audit xizmatlari **eng kam shtat birliklari sonini aniqlash metodikasi** va **me'yorlari** hamda **ichki audit xizmati rahbarlarini lavozimdan ozod etishni Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish tartibi** belgilandi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashda foydalaniladigan savolnomaga baholash amaliyoti hamda qonunchilikdagi o'zgarishlardan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi;

ichki audit milliy malaka sertifikatini berish va sertifikat egalarining malakasini oshirish jarayoniga amaliyotdan kelib chiqib, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

v) Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-apreldagi “2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 210-sonli qarori bilan **“2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi”** tasdiqlandi.

Mazkur strategiyada davlat ichki nazorati va ichki auditini takomillashtirish bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish belgilandi:

Davlat ichki nazorati va ichki audit to‘g‘risidagi **qonun loyihasini ishlab chiqish;**

Xalqaro standartlar asosida ichki audit xizmatlari xodimlarini **sertifikatlash va malakasini oshirish** tizimlarini takomillashtirish;

Ichki audit xizmatlari faoliyatida **samaradorlik auditini va axborot texnologiyalari auditini** joriy etish tartibini ishlab chiqish;

Davlat organlari va tashkilotlarida **ichki audit faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish;**

Davlat organlari va tashkilotlarida **ichki audit xizmatini outsorsing asosida amalga oshirish** tartibini belgilash.

g) Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-apreldagi 210-sonli qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining **“Davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.**

Hozirda, Ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyatini **raqamlashtirishga ko‘maklashish bo‘yicha ekspert yollash** ishlari amalga oshirilmoqda.

d) Davlat organlari va tashkilotlari **ichki audit xizmatlari xodimlarini tayyorlash va sertifikatlash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish maqsadida** Jahon banki ishtirokida “Institutsional salohiyatni oshirish loyihasi” doirasida xorijiy maslahatchi bilan shartnoma imzolanib, belgilangan texnik topshiriq asosida xorijiy davlatlar ilg‘or tajribalari va mamlakatimizdagi amaliyot o‘rganildi.

Ilg‘or halqaro amaliyotni O‘zbekistonda tatbiq etish hamda sertifikatlash tizimini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining **“Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmatlari va moliyaviy nazorat xodimlari malakasini sertifikatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.**

y) Ichki auditga oid yangi qabul qilingan normativ hujjatlardan kelib chiqib, **Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida** Iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 10-dekabrda 309-son **buyrug'i qabul qilindi** va belgilangan tartibda Adliya vazirligida 2025-yil 18-dekabrda 3406-2-sonli bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

II. Sertifikatlashni tashkil etish va ichki audit xizmati xodimlari malakasini oshirish

a) O'zbekiston Auditorlar palatasi bilan birgalikda ichki audit milliy malaka sertifikatini olishga talabgorlar uchun har oy malaka imtihonlari tashkil etildi. Shuningdek, imtihon komissiyasi va apellyatsiya komissiyasi tarkibida **boshqarma xodimlari komissiya a'zolari sifatida ishtirok etdi.**

Ma'lumot uchun, 2025-yil davomida 702 nafar talabgorlarning 253 nafari ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega bo'ldi. Bugungi kunda 970 nafar shaxslar ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega.

Shuningdek, belgilangan tartibda **malaka oshirish kursini o'tamagan** ichki audit milliy malaka sertifikati egalari **sertifikatlarining amal qilish muddati tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar** Iqtisodiyot va moliya vazirligining **sertifikatlar reestrda** aks ettirilib borilmoqda.

Ma'lumot uchun, 2025-yil davomida 123 nafar sertifikat egalarining sertifikatlari amal qilish muddati tugatildi.

Hozirda Boshqarma tomonidan amaldagi tartibga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida Ichki audit milliy malaka sertifikatlari reestri yuritilmoqda (*quyidagi havola orqali tanishishingiz mumkin: <https://www.imv.uz>*).

Mazkur reestrda ichki audit milliy malaka sertifikati egalari, sertifikatning raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati, shuningdek, malaka oshirishga oid hamda sertifikatning amal qilish muddati tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Shu bilan bir qatorda, davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit shtat birliklarida ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega bo'lmagan xodimlarning faoliyat olib borishi taqiqlanganligi sababli, Ichki audit milliy malaka sertifikatlari reestri "Davlat fuqarolik xizmati yagona elektron axborot-tahlil tizimi" dasturiy-apparat kompleksining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilindi.


b) Ichki audit tuzilmalarini malakali xodimlar bilan ta'minlash hamda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida xavflarni boshqarish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'quv markazida boshqarma xodimlari ishtirokida malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Mazkur tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida hisobot davri davomida **34 ta** davlat organlari va tashkilotlarining **149 nafar** ichki audit xizmati xodimlari, **166 nafar** Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi xodimlari hamda **41 ta** davlat organlari va tashkilotlarining **165 nafar** xavflarni boshqarish sohasidagi mas'ul xodimlarining malakasi oshirildi (1-rasm).

1-rasm

Davlat organlari va tashkilotlari ichki audit xizmatlarining malaka oshirishda qatnashgan xodimlari to'g'risida ma'lumot

(2023 – 2025-yillar kesimida)



v) Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ichki audit xizmatlari, moliya-iqtisod (buxgalteriya) tuzilmalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari xodimlari uchun ichki nazorat va ichki audit faoliyatini tashkil etishning ilg'or xorijiy tajribalari, shuningdek, tegishli qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini yetkazishga bag'ishlangan **10 dan ortiq** seminar va treninglar o'tkazildi.

Shu bilan birga, bevosita davlat organlari va tashkilotlarida seminarlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Jumladan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi hamda Tog'-kon va geologiya vazirliklarida ichki nazorat tizimiga mas'ul rahbar va xodimlarga "Davlat sektorida ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimi"ni joriy etish va samaradorligini oshirishga qaratilgan seminarlar o'tkazildi.

Mazkur seminar va treninglarda **200 dan ortiq** rahbar o'rinbosarlari, ichki audit, moliya-iqtisod, buxgalteriya hisobi, korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqa tarkibiy bo'linmalar xodimlari ishtirok etdi.

III. Ichki audit xizmatlari faoliyatining tashkil etilishi hamda ularning faoliyatini jamoatchilikka ochiqlash

1. Davlat organlari va tashkilotlarida **ichki audit xizmatlarini tashkil etish** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" **PF-14-sonli** Farmoni hamda 2020-yil 30-dekabdagi "O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-4938-sonli** qarori bilan **belgilangan**.


Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi **416-sonli** qarori bilan ichki audit xizmatlariga **budget intizomini mustahkamlash, budget sohasiga oid qonunchilik hujjatlari buzilishini oldini olish (profilaktika)** hamda **budget xarajatlari samaradorligini tahlil qilish vazifalari** yuklatilgan.

2026-yil 1-yanvar kuni holatiga ichki audit xizmatlari faoliyati **62 ta** davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan, **17 ta** vazirlik, **8 ta** qo'mita, **15 ta** agentlik, **14 ta** hokimlik hamda **8 ta** boshqa tashkilotlarda yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, ushbu kun holatiga davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlarida jami **279 ta**, shu jumladan vazirliklarda **165 ta**, qo'mitalarda **18 ta**, agentliklarda **36 ta**, hokimliklarda **14 ta** va boshqa tashkilotlarda **46 ta** shtat birliklari mavjud hamda ularda **242 nafar** xodim faoliyat olib bormoqda (2-rasm).

Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmatlari va ularda mavjud shtat birliklari

(2023 – 2025-yillar kesimida)



2. Davlat organlari va tashkilotlari ichki audit tuzilmalari faoliyati natijalarini ochiqligini ta'minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida ochilgan "davlat ichki auditi" maxsus sahifasiga quyidagi ma'lumotlar joylashtirilib (yangilanib) borilmoqda:

- davlat ichki auditi sohasidagi qonunchilik hujjatlari;
- ichki audit milliy malaka sertifikatlari reestri;
- ichki audit xizmati xodimlar faoliyati samaradorligining reytingi;
- malaka oshirishga oid ma'lumotlar;
- ichki audit tuzilmasi mavjud davlat organlari va tashkilotlari;
- ichki audit tuzilmalari faoliyatini baholash;
- xalqaro hamkorlik, seminar va treninglar;
- xalqaro foydalanishdagi qo'llanmalar.

IV. Ichki audit xizmatlari faoliyati natijalari


1. Ichki audit xizmatlarining 2025-yildagi faoliyati natijalari quyidagilardan iborat:

– hisobot davrida o‘tkazilgan audit tadbirlari natijasida jami **827,3 mlrd so‘mlik maqsadsiz va samarasiz xarajatlar oldi olindi** hamda budjet hisobi va hisobotlari yuritilishiga ko‘maklashish natijasida **1 030,5 mlrd so‘mlik** asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarning o‘rnatilgan tartibda **buxgalteriya balansida to‘g‘ri aks ettirilishiga** erishildi (3-rasm);

3-rasm

Ichki audit xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan profilaktika tadbirlari natijalari


(2023 – 2025-yillar bo‘yicha, mlrd so‘mda)



– Masofaviy audit qamrovi va sifatini yanada oshirish hamda ichki auditorlarning moliyaviy ma‘lumotlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida “UzASBO” dasturiy majmuasida **“kameral” modulidan** foydalanish bo‘yicha **194 nafar (83%)** ichki audit xizmati xodimlariga **login va parollar taqdim etildi**.

– ichki audit xizmatlari tomonidan o‘tkazilgan **1 444 ta** ichki audit tadbirlari natijasida **budget tashkilotlariga moliyaviy intizomni mustahkamlash yuzasidan** kiritilgan **4 226 ta taklif va tavsiyalarning 4 088 tasi** yoki **97 foizining ijrosi ta‘minlandi** (4-rasm);


Ichki audit xizmatlari tomonidan berilgan taklif va tavsiyalarning bajarilishi
(2023 – 2025-yillar kesimida)



– ichki audit xizmatlari tomonidan ularning 2025-yil uchun **yillik rejalari**ga kiritilgan **1 036 ta** ichki audit tadbirining **994 tasi** yoki **96 foizi** o'tkazildi (5-rasm).

Ma'lumot uchun: 2025-yilda Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi (10%), Yoshlar ishlari agentligi (50%), O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (67%), Sirdaryo viloyati hokimligi (67%) va Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasida (67%) yillik rejaning bajarilish ko'rsatkichi past bo'lgan.

Ichki audit xizmatlari tomonidan yillik rejasining bajarilishi
(2023 – 2025-yillar kesimida)



– ichki audit xizmatlari tomonidan 2025-yil davomida **1 645,7 mlrd so‘mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi hamda ularning 261,1 mlrd so‘mi tegishli budjetlarga tiklandi.**

– hisobot davrida **44 ta** davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari tomonidan **96,4 trln so‘m** miqdoridagi budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan **124 ta** dasturlarining **717 ta maqsadli indikatorlari ijrosi yuzasidan hisobotlar tahlil qilindi.**

Ichki audit xizmatlarining faoliyati natijalari bo‘yicha choraklik va yillik hisobotlar jamlanib, tahlil qilingan holda ularning faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishi va takomillashtirilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilib borilmoqda.

Shu bilan birga, tajriba – sinov tariqasida ichki audit faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida 2025–2026-yillar davomida **Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligida “Namunali ichki audit xizmati” loyihasini amalga oshirish** bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

V. Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularning reytingi

“Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga (Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 12-dekabrda 3583-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) muvofiq davlat organlari va tashkilotlari ichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil choraklar bo‘yicha faoliyati samaradorligi reytingi tuzildi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e‘lon qilindi (<https://imv.uz>).

Ichki audit xizmati xodimlarining 2025-yil IV chorak faoliyati samaradorligi reytingi natijalariga ko‘ra, davlat organlari va tashkilotlarining 232 nafar ichki audit xizmati xodimlaridan 171 nafari (74 foizi) “a‘lo”, 38 nafari (16 foizi) “yaxshi”, 13 nafari (6 foizi) “qoniqarli” hamda 10 nafari (4 foizi) “qoniqarsiz” deb baholandi (6-rasm).


O‘z navbatida, 2025-yilning IV chorak reyting ko‘rsatkichlari o‘tgan III chorak faoliyat samaradorligi natijalariga nisbatan yaxshilanib, “a‘lo” reyting ko‘rsatkichiga ega ichki audit xizmati xodimlari soni 129 nafardan 171 nafarga, shuningdek, “qoniqarli” reyting ko‘rsatkichiga ega ichki audit xizmati xodimlari soni 31 nafardan 13 nafarga hamda “qoniqarsiz” reyting ko‘rsatkichiga ega ichki audit xizmati xodimlari soni 17 nafardan 10 nafarga kamayishiga erishilgan.

Ma'lumot uchun, Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligi (KPI) amaldagi normativ hujjatga asosan oldi olingan moliyaviy xato va kamchiliklar (1), masofaviy audit natijalari (2), yillik rejaning bajarilishi (3) hamda takliflarning ijro etilishi (4) ko'rsatkichlari natijalari asosida 56 foizgacha – “qoniqarsiz”, 56 foizdan 71 foizgacha – “qoniqarli”, 71 foizdan 86 foizgacha – “yaxshi”, 86 foizdan yuqori – “a'lo” baholanadi.

6-rasm

Ichki audit xizmatlari xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha reyting natijalari

(2025-yilning choraklari bo'yicha)



VI. Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalari

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-sonli qaroriga muvofiq davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari tomonidan faoliyatga oid qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash hamda ularning faoliyatni takomillashtirib borish maqsadida **Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash amalga oshirildi.**

2025-yilda **5 turdagi** xavf omillarining tahlili asosida tanlab olingan **11 ta** davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlarida (*jami ichki audit xizmatlari mavjud bo'lgan davlat organlari va tashkilotlarining **22 foizi***) baholash o'tkazildi.

Ma'lumot uchun, 2025-yilda baholash o'tkazilgan **11 ta vazirlik va idoralar** ichki audit xizmatlarining baholash natijalari bo'yicha **yarim yillik va yillik hisobotlar** Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilindi (<https://imv.uz>).

Baholash natijasiga ko'ra, jumladan, **Transport vazirligi (62,2%)**, **Ekologiya vazirligi (64,3%)**, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (66,7%)**, ichki audit xizmatlari faoliyatining sifat darajasi "**past**", Kadastr agentligi (**72,3%**), Yoshlar ishlari agentligi (**75,7%**), Madaniyat vazirligi (**81,3%**), Fanlar akademiyasi (**82,3%**), Texnik jihatdan tartibga solish agentligi (**86,1%**), O'zarxiv agentligi (**88,7%**) ichki audit xizmatining sifat darajasi "**o'rta**" hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi (**91,6%**), Adliya vazirligi (**92,4%**) ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasi "**yuqori**" darajada baholandi (*ilovada*).

Baholash natijasi asosida, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlari bo'yicha quyidagi masalalarni o'z ichiga oluvchi **chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilib, ularning birinchi rahbarlari tomonidan tasdiqlandi**.

ichki audit xizmatlarining ichki hujjatlarini (nizom va lavozim yo'riqnomalarini) ichki auditga oid qonunchilikka muvofiqlashtirish;

yillik reja uchun xavf tahlilining sifatini yanada oshirish;

ichki audit tadbirlarining o'tkazilishi va natijalarining rasmiylashtirilishini qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash;

har chorakda bir moliyaviy masalaga (davlat xaridlari, ish haqi, qurilish-ta'mirlash, asosiy vositalar hisobi kabi) qaratilgan rejadan tashqari ichki audit tadbirlarini o'tkazish orqali tizimli muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish amaliyotini yo'lga qo'yish;

ichki audit xizmatining ochiqligini ta'minlash maqsadida faoliyat natijalarini muntazam ravishda jamoatchilikka e'lon qilib borish;

xodimlarning malakasini oshirib borish va kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Baholash natijasida tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasining ichki audit xizmatlari tomonidan bajarilishi doimiy monitoring qilib borilmoqda.

Shu bilan birga, 2025-yilda baholash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, ichki auditga oid qabul qilingan qonunchilik hujjatlari va baholash amaliyotidan kelib chiqib, Ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash bo'yicha namunaviy savolnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi va buning natijasida savollar soni 2024-yilga nisbatan **17 taga** ko'paygan holda **58 tani** tashkil etdi.

VII. Ichki nazorat tizimini tashkil etishni yo'lga qo'yish va takomillashtirish

a) Jahon banki ko'magida tashkil etilgan "Institutsional salohiyatni oshirish" loyihasi doirasida PricewaterhouseCoopers xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlik doirasida ichki nazorat tizimini yo'lga qo'yish yuzasidan belgilangan ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligida PWC xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ichki nazorat qo'llanmasining tajriba-sinovi o'tkazildi.

b) Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda budget intizomini yanada mustahkamlash maqsadida **56 ta** davlat organlari va tashkilotlarda **hisob siyosatining ishlab chiqilishi va tasdiqlanishiga erishildi.**

Moliya-iqtisod va buxgalteriya xizmatlari xodimlari malakasini baholash maqsadida **55 ta** davlat organlari va tashkilotlarining **moliya-iqtisod va buxgalteriya tuzilmalarida** faoliyat olib borayotgan **17,7 ming** nafar xodimlarning **40 ta ko'rsatkich bo'yicha malakasini baholash tahlili amalga oshirildi.**

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, 2026–2027-yillarda davlat ichki moliyaviy nazorati tizimini joriy etish orqali dastlabki va joriy nazoratni yanada kuchaytirish yuzasidan **chora-tadbirlar rejasi loyihasi ishlab chiqildi.**

Davlat organlari va tashkilotlarining quyi tizim tashkilotlari moliyaviy ma'lumotlarini masofaviy nazorat qilish maqsadida **markaziy apparat** hamda **viloyat darajasidagi moliya-iqtisod va buxgalteriya xizmatlari xodimlariga** "UzASBO" dasturiy majmuasining **"kameral" modulidan foydalanishi** tashkil etildi hamda login va parollar berish boshlandi.

VIII. Ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha xalqaro hamkorlik

a) “Global ichki audit standartlari” (GIAS) hamda unga muvofiq Jahon bankining Davlat moliyasini boshqarish bo'yicha xalqaro hamkorlik ta'lim dasturi (PEMPAL) tomonidan ishlab chiqilgan Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi asosida **yangi tahrirdagi Ichki audit milliy standartlari loyihasi ishlab chiqildi.**

b) PEMPAL hamjamiyatining samaradorlik auditini o'rganish bo'yicha ishchi guruhi faoliyatida boshqarma xodimlari ishtirok etishmoqda va ishchi guruh bilan birgalikda **“Samaradorlik auditini bo'yicha qo'llanma” loyihasi tayyorlandi.**

Shuningdek, mamlakatimizda ichki audit va ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha PEMPAL hamjamiyati bilan doimiy ravishda hamkorlik qilib kelinmoqda hamda mazkur sohaga oid tashkil etilgan xalqaro seminarlarda ishtirok etib kelinmoqda.

v) 2025-yil davomida Boshqarma xodimlari ichki audit va ichki nazoratni takomillashtirishga oid xorijiy davlatlarda tashkil etilgan **3 ta** seminar-treninglarda ishtirok etib, malaka oshirdilar.

Jumladan, Jahon banki ko'magidagi Davlat moliyasini boshqarish bo'yicha xalqaro hamkorlik ta'lim dasturi (PEMPAL) doirasida:

– Avstriya davlatining Vena shahrida davlat moliyasini boshqarish, budget jarayoni va ichki audit tizimi bilan yaqindan tanishib, malaka oshirildi;

– Chernogoriyaning Budva shahrida Samaradorlik auditini (Performance Audit) va Barqarorlik auditini (Sustainability Audit)ni o'tkazish hamda davlat ichki auditini va ichki nazoratini islohotlari bo'yicha Chernogoriya tajribasi bilan tanishib, malaka oshirildi;

– Moldovaning Kishinyov shahrida ichki audit strategiyasi va strategik rejalashtirish hamda davlat ichki auditini va ichki nazoratini islohotlari bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar bilan tanishib, malaka oshirildi.

Mazkur tashrif doirasida tashkil etilgan seminar va treninglarda **6 nafar** xodim ishtirok etib, o'z bilim va malakalarini oshirdilar.

2025-yilda ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalari

T/r	Nazorat savollari yo'nalishi	Adliya vazirligi	Qishloq xo'jaligi vazirligi	O'zarxiv agentligi	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi	Fanlar akademiyasi	Madaniyat vazirligi	Yoshlar ishlari agentligi	Kadastr agentligi	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	Ekologiya vazirligi	Transport vazirligi
Sifat darajasi (foizda)		92,4%	91,6%	88,7%	86,1%	83,8%	81,3%	75,7%	72,3%	66,7%	64,3%	62,2%
1	Ichki audit xizmati xodim-larining malaka darajasi hamda faoliyati samaradorligining baholanishi	92%	100%	100%	83%	83%	83%	75%	100%	100%	100%	100%
2	Ichki audit xizmati faoliyatining belgilangan tartibda tashkil etilishi	100%	94%	89%	100%	100%	78%	100%	89%	83%	100%	78%
3	Ichki audit xizmati faoliyatiga oid boshqa savollar	92%	93%	100%	86%	100%	79%	92%	70%	83%	43%	92%
4	Ichki audit tadbirlarining qonunchilikka muvofiq o'tkazilishi	89%	100%	86%	96%	92%	75%	68%	68%	100%	61%	79%
5	Ichki audit xizmati ichki hujjatlarning qabul qilinishi	100%	100%	100%	100%	67%	83%	50%	50%	67%	100%	67%
6	Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi	94%	88%	69%	50%	100%	100%	81%	44%	38%	56%	25%
7	Yillik rejaning xavf tahlili asosida ishlab chiqilishi	88%	75%	94%	100%	56%	69%	75%	88%	25%	19%	38%

 – yuqori  – o'rta  – past